

VATAN TARAQQIYOTIGA MENING HISSAM

Fayzulloeva Zarinaning

*Ўzbekiston davlat Jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyoti, Ingliz tili 3 fakultet
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Millarlararo totuvlik - kòplab millat va elat vakillarining bitta makonda ahil-inoq, birdam va bahamjihatlikda yashashidir. Inson qaysi davlat vakili yoki qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'iy nazar u insondir. Ushbu tushunchalarning keng kòlamli ma'nodan iboratligi va nihoyatda muhim ekanligi kishini yanada chuqurroq fikrlashga va idrok etishga chorlaydi.*

Kalit sòzlar: *Millarlararo totuvlik, dinlararo bağrikenglik, insoniylik, mehr-oqibat, model, islohot, yuksak qadriyat.*

Millarlararo totuvlik-yer yuzida yashayotgan barcha etnik guruhlarining teng huquqliligi, òzaro hurmat va hamkorlikda tinch-totuv yashashlaridir. Turli millat va elat vakillarining bir zamin, bir vatanda olijanob ğoya va niyatlar yòlida hamkor, hamjihat bòlib yashashlari-diniy bağrikenglikdir. Diniy bağrikenglik insonlarni halollik, poklik va mehr-oqibatli bòlishga chorlaydi. Millatlararo totuvlik va diniy bağrikenglikni shakllantirish kòpmillatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bòlishi kerak. Òzbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk kunlaridanoq diniy bağrikenglikning barqaror rivojlanishiga zamin yaratuvchi siyosat ishlab chiqildi. Hozirgi kunda Òzbekiston hududida òz madaniyati va òz an'analariga ega bòlgan 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi. Ularning farovon yashashi, osoyishta hayot kechirishlari uchun bizning yurtimizda qulay shaart-shaoitlar yaratilgan. Yurtboshimiz va davlat mutasaddilarining chuqur va izchil izlanishlari hamda tinimsiz qilayotgan say-harakatlar sababli, yurtimizda bu soha ham òz òrnini topa olgan. Ushbu ğoyaga alohida e'tibor qaratilganligi davlatimizning bosh qomusida ham òz aksini topgan.

Òzbekiston ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyğunlashtirish yòlida òz òrniga ega. Mamlakatimizda olib borilgan va olib borilayotgan keng kòlamli islohotlardan kòzlargan asosiy maqsad inson manfaati, uning erkinligini ta'minlashdir. Buning uchun avvalo, tinchlik va osoyishtalik, òzaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yaratish kerak. Barchamiz kòrib turibmizki, ushbu ğoyani ilgari surishda qilinayotgan harakatlar òz natijalarini asta-sekin namoyon etmoqda. Amalga oshirilayotgan say-harakatlarga misol qilib, mamlakatimizdagi davlat ta'lim muassasalarida 7 tilda olib borilayotgan òqitish tizimini olishimiz mumkin. Gazeta va jurnallar, teledasturlar va radio eshittirishlar ham 10 dan ortiq tillarda namoyish etilmoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan dòstlik aloqalarini mustahkamlagan holda va hamjihatlikda kòplab milliy madaniy markazlar, diniy tashkilotlar ham òz faoliyatini yuritmoqda. Chuqur va izchil òylangan siyosat va amaliy chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilib, millatlararo va dinlararo totuvlikni qòllab-quvvatlashga yanada e'tibor qaratilmoqda. Xususan bizning yurtimizda, turli millat va din vakillarining òz salohiyatlarini tòlaqonli namoyon etish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun muhim chora-tadbirlar bayon etilgan. Ushbu chora-tadbirlarda eng

avvalo, fuqarolarning jinsi, Irqi, millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar fuqarolarga jamiyat va davlat qurilishida ishtirok etish imkonini ta'minlaydi. Òzbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik òrnatish uchun amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi xalqaro huquqiy-me'yoriy hujjatlarga tòla mos keladi.

Òzbekistonning zamonaviy davlat sifatida rivojlanish strategiyasida ham ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning huquq va erkinliklarini kengaytirish maqsadida kòplab hujjatlar va qarorlar qabul qilindi. Diniy tashkilotlarning vakolatlari ham kengaytirilib, kòplab imkoniyatlar yaratildi. Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bòyicha qarorlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etildi. Fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlarini himoya qilish, turli millat va elat vakillari òrtasida konstruktiv va òzaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish tizimi ham joriy qilindi. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan dòstlik aloqalari qòmitasining tashkil etilishi ham ushbu sohani rivojini ta'minlash, Òzbekiston Respublikasining tashqi siyosatida ham muhim ahamiyatga ega bòldi. Kòplab islohotlar amalga oshirildi va xalqaro mutaxassislar tomonidan bu boradagi òzgarishlarga yuqori baho berib borilmoqda. Yurtimizning bu sohada olib borayotgan islohoti va e'tibori xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanmoqda, ushbu tajribaga katta qiziqish bilan qaralmoqda. Hatto Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etganliklari va ushbu taklif inobatga olinib, u haqda maxsus hujjatning qabul qilinishi ham millatlarlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik Òzbekiston xalqining yuksak qadriyati ekanligini namoyon eta oldi. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida ijobiy va òzaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlashga asos bòladigan "model" bizning yurtimizda yaratildi. Sònggi yillarda millatlararo munosabatlar va din sohasida amalga oshirilgan keng kòlamli islohotlar yurtimizda ushbu sohalarda yangicha yondashuv va strategik maqsadni birlashtirgan tizim paydo bòlishga xizmat qildi. Ushbu muvaffaqiyatli tizimning paydo bòlishi esa, yurtimizda tinchlikni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, barqaror rivojlanish uchun zamin yaratmoqda. Zero, jamiyatda hamjihatlik va barqarorlik, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlash, zamonaviy davlatning bosh maqsadidir